

# **MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM TAHDIDINI QANDAY TUSHUNAMAN**

6-KTQXM-15 guruh talabasi Abdumalikov Mahmudjon  
Namangan muhandislik-qurilish instituti

Men diniy ekstremizm va terrorizmni qanday tushunaman – asosan islom dinini niqob qilib olib dinimizga zid bo'lgan g'oyalari bilan qabix niyatlarini musulmonlar orqali amalga oshiruvchi kimsalarni. Islom dinidan chuqur bilimi bo'lmagan musulmonlardan o'zlarini islom dinini biluvchi qilib ko'rsatib islom dini, qur'on kitobi va xadislarni buzib talqin qilib o'zlarining yovuz g'oyalarini singdiruvchi shaxslarni. Bilib-bilmasdan bu yo'lga kirib qolganlardan foydalanib ularni hech kimni tan olmaydigan, faqat ularning g'oya va mafuralariga bo'ysunadigan, hatto o'z ota-onasidan voz kechtiruvchi manqurt qilib tayyorlaydiganlarni. “Jihadchilar” yordamida urush o'choqlarini tashkil qiluvchi kimsalarni. Moddiy va siyosiy manfaatlarni ko'zlab yovuz niyatli g'oyalar singdirilgan odamlarni, jihadchi va kamikadzelar tayyorlovchi va tayyorlatuvchilarni. Ekstremizm va terrorizmning natijasi bo'lmish manqurt jangarilarni va ularning “mehnat mahsuli” bo'lmish minglab, millionlab qurbonlar va bir paytlar gullab yashnagan va hozirda vayron bo'lgan shaxarlarni. Hozirda e'tiqod qiluvchilari soni jadallik bilan oshib borayotgan va e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan yer yuzida 2-o'rinda turuvchi din Islom dinimizga nisbatan boshqalarda Islomofobiya (fobiya – qo'rqish) ni yuzaga keltirishga harakat qiluvchilarni. Terrorchi-ekstremistlarni moddiy qo'llab quvvatlovchi “uchinchi tomon” shaxs va tashkilotlarni. Jang bo'lib o'tgan, bombalar tushgan shaxarda bolasining jasadini bag'riga bosib ko'zlarida yosh qalbida qon yig'layotgan onalarni. Xarobalardan o'zining otasini yoki onasining tirigini yoki o'ligini topa olmayotgan hayotida hech kim qolmagan ko'ngli yarimta bo'lib qolgan yetim bolalarni. O'zicha “hijrat” qilaman “shaxid” bo'laman “savob” olaman deb kelgan “hijratchilar” ning dastidan tirik qolish uchun sovuqda qayiqda suzib o'tish qiyin, ikki sohilning orasi uzoq bo'lgan suvlardan suzib o'tuvchi qochqinlarni. Shavqatni bilmaydigan jangarilar, begunoh bolasidan ayrilgan ota-onalar, ersiz qolgan beva ayollar, yetim qolgan bolalarni tushunaman.

Men diniy ekstremizm va terrorizmni qanday tushunaman – hattoki hali aqlini deyarli tanimagan 3 yoshli bolachaning ekstremist va terrorchilarni qilayotgan ishi noto'g'riligini tushunganligi, ular qotillar ekanligini qo'lidan hech narsa kelmasligini bilib o'q tegib jon berishidan oldin “Hammasini Allohingga aytib beraman” degan so'nni so'zlarini. Men diniy ekstremizm va terrorizmni mana qanday tushunaman!!!

Yuqoridagilarga misol qilib bugungi kunda o'z faoliyatini diniy ekstremistik tashkilotlar g'oyalari asosidagi ISHID (Iroq va Shomdagi “Islom davlati”) to'g'risida alohida to'xtalsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Joriy yilning yanvar oyida Suriyaning o'zining "Islom davlati" deb atayotgan terrorchi guruh nazoratida bo'lgan Raqqa shahrida ko'z ko'rib quloq eshitmagan mudhish ishlardan biri sodir bo'ldi. 40 yoshli mushtipar ona 20 yoshli o'g'lini terrorchi guruhni tark etishini so'rab qilgan iltijolarini oqpadar o'g'il o'z qo'mondoniga yetkazgan. So'ngra esa rahnamalaridan tegishli ko'rsatma olib, o'z onasini haloyiq ko'z oldida, bechora ayol butun umr ishlagan pochta binosi oldida otib o'ldirgan.

"Islom davlati"ning qilayotgan ishlari har qanday diniy yoki dunyoviy qolipga mos kelmaydi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassalamdan keyin 30 yil davom etgan halifalik davrida davlatni boshqargan 4 halifa davlatni shunday odilona boshqarganki ular(halifa, sahoba)ning ishlari, siyosatlari nafaqat musulmonlarga, butun dunyoga o'rnak bo'la oladi.

Bugungi kunga kelib, muqaddas dinimiz nomidan jihod, xalifalik, hijrat, islom davlati kabi turli jarangdor so'zlarni o'zlariga shior qilib olgan oqimlarni faoliyat olib bormoqda. Ularning bu da'volari haqiqatga qanchalik to'g'ri keladi? Muqaddas dinimizda bu kabi targ'ibotlarga qanday qaraladi?

Dastlab "jihod" deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan. "Jihod" so'zi lug'atda urush ma'nosini anglatmaydi, bu ma'no uchun arab tilida "qitol" so'zi ishlatilganligi lug'at kitoblarda keltirilgan. "Jihod" lafzi inson o'z nafsini yig'ish jilovlash uchun jon-jahdi bilan harakat qilishdir. [1]

Bundan kelib chiqadiki demak inson o'z nafsini bilan kurashsa, nafsini tiysa va nafsini ustidan g'alaba qozonsa demak bu haqiqiy jihod bo'lib, shu amaliga yarasha ajr-savoblarga ega bo'ladi.

Diniy ekstremistik oqimlar tomonidan yana bir buzuq aqida, xalifalik g'oyasiga targ'ib etishmoqda.

Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassalam shunday deganlar. "Xalifalik mendan keyin o'ttiz yil, so'ngra podshoxlik va amirliklar bo'ladi" deganlar. (Ibn Hibbon rivoyati)

Ushbu hadisga ko'ra Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasalam aytganlaridek, o'ttiz yillik xalifalik tugab, undan keyin podshohlik va amirliklar davri boshlangan.

Biror hududni bosib olgan bir to'da g'alamislarning "xalifalik" da'vosini qilishi yoki bay'at olishi dinimiz ta'limotiga muvofiq kelmaydi.

Diniy ekstremistik oqimlarning yana bir da'vosi hijrat bo'lib, "hijrat" so'zining lug'aviy ma'nosi tark qilish, tashlab ketish, o'z vatanidan boshqa joyga ko'chishdir. Istilohda esa diniga erkin amal qilish imkoni bo'lmay, yurtida besh vaqt namoz o'qish va boshqa farz amallarni bajarish imkoni topilmasa hijrat qilishga qodir kishilarning ko'chishi tushuniladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vassalam: "Fathdan keyin hijrat yo'q" dedilar. (Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan)[2]. Hijrat haqida yana Rasululloh sollallohu alayhi vassalam "Hijratning eng afzali – Alloh taolo qaytargan narsani tark etmoqdir". (Imom Ahmad rivoyati).

Yuqoridagi hadislardan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda hijrat va jihod qilish hamda halifalik tuzish uchun hech qanday diniy va dunyoviy asos ham sabab ham yo'q. Bularning bari katta-katta miqdorda boyluk orttirish va siyosiy maqsadlarni ko'zlagan yovuz kuchlarning pok Islom dinimizni va amallarini shu din haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan musulmonlarni, hamda boshqa din vakillariga yomon ko'rsatmoqchi bo'lganlarning o'yinlaridir.

Ho'sh, bunga qarshi qanday kurashmoq kerak. Marhum prezidentimiz Islom Karimovning "G'oyaga qarshi g'oya, firga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashaylik", so'zlari asosida o'zimiz, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizda buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurasha oladigan ichki immunitetni shakllantirishimiz lozim bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun hozirgi axborot asrida quyidagicha foydalanish mumkin deb o'ylayman;

- Diniy dastur va fanlarni o'qitilishida ekstremistlar yoshlarni jalb qilishda foydalaniladigan asosiy atamalar - hijrat, jihod, shahidlik, halifalik va shu kabi so'zlarni asl ma'no-mohiyatini yosh avlod ongiga yetkazish;
- Axborot resurslari, internetda ekstremistlarga qarshi sof islom dinimizni targ'ib qiluvchi kitob, audio va videolardan keng foydalanish;
- Ekstremistik-terrorchilarning g'oyalariga qarshi kurashda Siyosiy, axborot, diniy, madaniy va yoshlar muassalarining hamkorligini o'zaro kuchaytirish.

Diniy ekstremizm va terrorizmni, uning tahdidini oldini olish uchun hozirgi kunda juda keng ko'lamli ishlar olib borilayotgani e'tirof etish joiz. Tarixda Imom Buxoriy va Termiziydek allomalarga beshik bo'lgan yurtda hozirgi kunda ham hofizi qur'onlar juda ko'p ekanligini yaqindagina respublikamiz bo'yicha bo'lib o'tgan Qur'on musobaqasida qatnashgan ishtirokchilar gapimizning yorqin misolidir.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 31 mln.dan oshgan bo'lib ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3.5% ga yaqin fuqarolar provaslav diniga mansub bo'lib, qolganlari boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasidir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat yuritayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglikning amaliy ifodasidir.[3]

Hozirgi kunda yurtimizda noto'g'ri yo'lga bilib-bilmasdan kirib qolgan, chin dildan pushaymon bo'lgan va o'z ixtiyori bilan kelgan yurtdoshlarimizni avf etilishi bizni naqadar bag'rikeng ekanligimizning isbotidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan minglab adashganlarni kechirilgani, "qora ro'yxatdan" o'chirilgani shuncha minglab odamlarni so'glom turmush tarziga qaytgani, shuncha ming kechirilgan odamlar boshqalarga

nisbatanda kuchliroq yurtimiz rivojiga hissa qo'shishni niyat qilgani, shuncha minglab odamlarni bizning siyosatimiz to'g'ri ekanligini, ekstremistlarning aldovlari yolg'onligi va ular bu yo'lga adashib kirib qolganliklarini tushunishlari va minglab odamlarga, bolalari, do'stlari va qo'shnilariga tushuntirishlari bu har qanday targ'ibotdan kuchliroq targ'ibotdir. Yana minglab, o'n minglab odamlarning noto'g'ri yo'lga kirib ketishlarini oldini olish demakdir.

Mana men diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini unga qarshi kurashish mumkinligini qanday tushunaman. Mana men diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini qanday tushunaman va tushuntiraman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Imom Buxoriy xalqaro markazi. Imom buxoriy saboqlari. 2-son. 2017-yil
2. Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Iymon kitobi 4-bob.
3. <http://www.religions.uz>
4. Tulepov A. Ishid fitnasi. –T.: Movorounnahr, 2014.